



OCHIQ AXBOROT MUHITIDA AXBOROT TO'QNASHUVI VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK: TAHDIDLAR, MEXANIZMLAR VA HUQUQIY- AXBORIY YONDASHUV

**Abbasov Alibek
Abdullayevich**

erkin tadqiqotchi.

Аннотация

Maqolada axborot to'qnashuvi tushunchasi va uning ochiq axborot tizimlarida (ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, ochiq platformalar) shaxs hamda jamiyat psixologik xavfsizligiga ta'siri kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot to'qnashuvining asosiy ko'rinishlari — dezinformatsiya, manipulyatsiya, kognitiv ta'sir, "echo chamber", axborot bosimi (information overload), bot-tarmoqlar va koordinatsiyalashgan kampaniyalar — tizimlashtiriladi. Psixologik xavfsizlikning mazmuni axborot ta'siriga chidamlilik, ruhiy barqarorlik, qaror qabul qilishda kognitiv mustaqillik, shaxsiy chegaralar va media savodxonlik komponentlari orqali ochib beriladi. Ochiq tizimlarda risklar sifatida stigmatizatsiya, radikallashuv, qo'rquv va vahima tarqatish, reputatsion zarar, kiberbulling va ijtimoiy ishonchning yemirilishi tahlil qilinadi. Yakunda axboriy-gigiyena, faktcheking, platforma moderatsiyasi, algoritmik shaffoflik, kiberxavfsizlik va huquqiy javobgarlik mexanizmlarining uyg'un qo'llanishi bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar:

axborot to'qnashuvi; ochiq axborot tizimlari; psixologik xavfsizlik; dezinformatsiya; manipulyatsiya; kognitiv ta'sir; media savodxonlik; bot tarmoqlar; kiberbulling; algoritmik shaffoflik.

Аннотация: В статье раскрывается общее понятие информационного столкновения и анализируется психологическая безопасность информации в условиях открытых информационных систем (социальные сети, мессенджеры, открытые платформы). Систематизируются ключевые формы информационного противоборства: дезинформация, манипуляция, когнитивное воздействие, «эхо-камеры», информационная перегрузка, бот-сети и координированные кампании. Психологическая безопасность рассматривается как устойчивость личности и общества к деструктивным информационным влияниям, сохранение когнитивной автономии, эмоциональной стабильности и навыков критического восприятия. Анализируются риски стигматизации, радикализации, распространения паники, репутационного ущерба, кибербуллинга и эрозии общественного доверия. В заключении предложены практико-ориентированные меры: информационная гигиена, фактчекинг, модерация платформ,

алгоритмическая прозрачность, киберзащита и согласованное применение правовых механизмов ответственности.

Ключевые слова: информационное столкновение; открытые информационные системы; психологическая безопасность; дезинформация; манипуляция; когнитивное воздействие; медиаграмотность; бот-сети; кибербуллинг; алгоритмическая прозрачность.

Raqamli kommunikatsiyalar kengaygani sari ochiq axborot tizimlari ijtimoiy fikr, xulq-atvor va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muhitga aylandi. Aynan shu ochiqlik axborot to'qnashuvi — ya'ni raqobatli subyektlar tomonidan axborot oqimlari orqali ta'sir o'tkazish, manipulyatsiya va dezinformatsiya tarqatish — uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada psixologik xavfsizlik masalasi shaxsiy darajadagi ruhiy barqarorlikdan tortib jamoaviy ishonch va ijtimoiy barqarorlikkacha bo'lgan keng ko'lamli risklarni qamrab oladi. Mazkur maqola ushbu tahdidlarni tizimlashtirish va ularni boshqarish yechimlarini ko'rsatishga qaratilgan.

“Axborot to'qnashuvi” tushunchasi ilk bor 1967 yili Allen Dalles¹ tomonidan muloqotga kiritilgan. Muallif, bu tushunchani “sovuq urush” davrida ikki qutbli dunyoda AQSHni SSSRga qarshi olib borilgan harakatlarida qo'llagan bo'lsada, ommaviylashmagan. Ammo amerikalik fizik Tomas Rona (Prezident R.Reygan va Dj.Bush (kattasi) davrida Oq uy va Mudofaa boshqarmasining ilmiy maslahatchisi lavozimida xizmat qilgan davrida, 1976 yilda Boing kompaniyasi uchun tayyorlangan “Qurollar tizimi va axborot to'qnashuvi” nomli hisobotida qo'llanilgan. Hisobotda axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanganligi va bir vaqtning o'zida harbiy vaziyatda ham, tinchlik davrida ham keng qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. U, axborotni harbiy kuchlar tizimining zaif bug'ini deb ta'riflab, ushbu masalaga barcha davlat miqyosidagi mas'ul kishilarni e'tiborini qaratgan. SHundan beri mazkur tushunchaning ahamiyati va dolzarbligi o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Lekin, bu xulosa axborot to'qnashuv tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimida vujudga kelgan degan hukmni chiqarish uchun asos bo'lolmaydi. CHunki axborot to'qnashuvi inson paydo bo'lishi bilan birga vujudga kelgan. Ammo, axborot to'qnashuvi deb atalmagan. Masalan, urushlar tarixiga nazar solsak, ularning har birida ma'lum ko'rinishda axborot to'qnashuvi kuzatiladi. Axborot to'qnashuvi o'zining g'oyasiga ega bo'lib, aniq bir ob'ektga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ularning xarakteri va yo'naltirilganligini bugungi globalizatsiyalashuv² davrining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- **axborot to'qnashuvining birinchi bosqichi.** Jang teatr maydoniga kirishishdan oldin raqib (dushman) va uning askarlarini o'q otar qurollari ishdan chiqqanligi, sarkardalarini layoqatsizligi, jangchilarni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlanmaganligi, askarlarni o'z komandirlariga ishonsizlik bildirilayotganligi

¹ Даллес А. Искусство разведки. - М.: Международные отношения, 1992.

² Лот. globus - шар, ер сайёраси. Словарь иностранных слов (около 10 000 слов). – СПб.: ООО “Виктория плюс”, 2010. - С.153. Фикримизча, глобаллашув соҳавий тарзда кечиб, иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва маданий кабиларга ажратилади. Ҳар бир соҳани ҳаёт-фаолияти глобаллашув жараёнида ўзига хос манзарага эга бўлиб, динамик жиҳатдан бир-биридан фарқланади. Шу сабабли, глобаллашув тушунчасини

қўллашда уни жамиятни қайси соҳасига нисбатан қўлланилишини аниқ кўрсатилиши, ахборотнинг психологик хавсизлигини таъминлаш нуқтани назари жиҳатидан хавф ва таҳдидларни ўз вақтида аниқлаш жаранини осон кечиши таъминланади.

turli axborot kanallari bilan etkazilgan. Axborot kanallari sifatida savdogarlar, qalandar va darvishlar vositasida mish-mishlar tarqatilgan;

- **axborot to'qnashuvining ikkinchi bosqichi.** Harbiy – texnika va qurol aslahalarni yaratilishi bilan aloqador. Bu bosqichda harbiy faoliyatda asosan axborot vositasida psixologik kurash olib borilgan. Unda raqib va uning askarlarida o'z kuchiga ishonchsizlik, shubha tug'dirish orqali qadriyatlariga putur etkaziladi. Ishonchsizlik, tanlangan hayot yo'li, maqsadi va qiziqishlari tufayli azob chekib jismonan nest – nobud bo'lishi besamar ekanligi ularning ongiga singdirilgan. Buning uchun radio va boshqa nashriy manbalardan foydalanib, maqsad ommaviy manipulyasiyani³ amalga oshirib, g'alaba qozonish uchun zamin tayyorlashdan iborat bo'lgan. Manipulyasiya o'tkazish o'z tuzilishiga ega bo'lib, ta'sir ko'rsatishni rejalashtirish, manipulyasiya o'tkaziladigan ob'ekt haqida axborot jamlash, ta'sir ko'rsatuvchi manbaga moslashish, ta'sir ko'rsatish uchun sharoit yaratish va ta'sir ko'rsatishdan iborat. Raqibga (ob'ektga) ta'sir ko'rsatish Napoleon va Suvorovlar kabi sarkardalarning harbiy amaliyotida ham kuzatilgan. Jumladan, Napoleon qo'shinida bir kecha-kunduzda 10.000 varaqa chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ko'chma bosmaxona bo'lganligi⁴ ma'lum;

- **axborot to'qnashuvining uchinchi bosqichi.** Fan va texnika yutuqlarini harbiy faoliyatga tadbqiq etishi bilan bog'liq bo'lib, harbiy-psixologik manbalarda "biologik" urush nomi bilan ko'rsatib o'tilgan. Bu bosqichda, axborot yaratilgan biologik qurollarni texnik tasnifini namoyon etish uchun qo'llanilib, harbiy boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotganlarning xizmat faoliyatiga va ommaviy ongga ta'sir ko'rsatib, maqsadi - siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishdan iborat.

- **axborot to'qnashuvining to'rtinchi bosqichi.** Er osti va er usti resurslarni cheklanganligi natijasi, ularni qo'lga kiritish uchun amalga oshiriladigan kurashda, ya'ni gegemonlikka intilish davomida axborot vositasida harbiy – texnik, intellektual, moliyaviy va iqtisodiy ustunlikka ega ekanligini namoyish etish uchun axborotdan foydalanish. Maqsad, turli siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ma'lum manfaatlarni himoyasini ta'minlashdan iborat.

Axborot to'qnashuvi jarayonida insonni dunyo haqidagi yaxlit tasavvuri, uning kengligi va aniqligi parchalanib yuboriladi. Inson e'tiboriga qarama - qarshi fikrlar majmuasi "havola etiladi". Bu jarayonni murakkabligi shundan iboratki, inson turli kanallar vositasida uzatilayotgan axborotlar oqimidan aniq (to'g'ri) axborotni tanlab olishning iloji yo'q. Negaki har bir axborotni tarkibida kishini boshqarish uchun ma'lum bir komponentlar kiritilgan bo'ladi, ularning vazifasi kerakli ustanovkani (ko'rsatmani) shakllantirishdan iboratdir.

Axborot to'qnashuvi o'z maqsadiga ega ekanligi bilan birga, uning o'ziga xos vazifalari ham mavjud. Umumiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- ijtimoiy-oqartuv vazifasi. Axborot to'qnashuvi turli ko'rinishda ob'ektning (alohida shaxs, guruh (jamo) yoki aholi tanlanishi mumkin) tafakkuri, hissiyotiga ta'sir ko'rsatib, uning harakatini maqsadiga turli vositalar (reklama, filmlar, radio va teleshoular, internet va boshqalar) bilan ta'sir ko'rsatib, harakatini o'zgartirish.

³ Французча "manipulation" қўл ёрдамида чалғитиш йўли билан алдаш деган маънони англатади.

⁴ Ньюман П. Военная пропаганда vlastitel.com.ru/napoleon/propaganda.html

ya'ni, oldindan tayyorlangan natijaga erishish uchun ularni yo'naltirishdan iborat. Bunda nafaqat alohida bir ob'ekt miqyosida, balki keng, xalqaro doirada ijtimoiy fikrni shakllantirish uchun ham ish olib borilishi mumkin. Bunga misol tariqasida dunyoni Amerikacha "ko'rish" (American World View), dunyoni Rossiyacha "ko'rish" (Russian World View), dunyoni Xitoycha "ko'rish" (China World View) kabilarga erishish uchun olib borilayotgan axborot xurujlarini ko'rsatib o'tish mumkin. "Ko'rish" o'sha davlatlarning manfaatini himoya qilish, ularni siyosatiga yon bosish maqsadida munosabat bildirishda namoyon bo'ladi;

- radioelektron hujum uyushtirish vazifasi. Elektromagnit to'lqinlari yordamida u yoki bu ob'ektga turli signallarni yo'naltirib, raqib psixikasiga ta'sir ko'rsatib, faoliyatmandlikni izdan chiqarishdan iborat. Signallarni ditsebal ko'rsatkichi bo'yicha balandligi, ongning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada ong aks ettirish, ijodiy-kreativlik (yaratuvchanlik), regulativ-baholovchi hamda reflektiv funksiyalarni bajara olmaydi;

- psixologik hujum uyushtirish vazifasi. Turli usullar yordamida alohida shaxs, guruh (jamo'a) va fuqarolar psixologiyasiga (hayot mazmuni, qadriyatlar, qiziqish va dunyoqarashlari) ta'sir ko'rsatib, ularni tanlangan yo'li xatoligi to'g'risidagi fikrni uyg'otishdan iborat.

Axborot to'qnashuvi jarayonida uni o'tkazayotganlar ob'ektning siyosiy, harbiy va ijtimoiy shayligiga putur etkazib, o'zining g'alabasini ma'naviy-ruhiy jihatdan ta'minlashga erishadi. SHu sababli Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni SH.M.Mirziyoev "Axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo'llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o'z navbatida, axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qo'shimcha choratadbirlar ko'rishni hayotning o'zi taqozo etmoqda"⁵-deb, axborotni xavfsizligini ta'minlash tizimini doimiy tarzda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib o'tgan.

Biroq, ommaviy axborot vositalari (OAV) gazeta, radio, televidenie paydo bo'lishi bilan, albatta, axborotni yoyish makoni kengaydi, axborot 1000 yil oldingiga qaraganda nafaqat shiddat bilan, balki turli qo'shimcha vazifalarni bajarilishi bilan "harakat" qilmoqda.

XIX-asrning oxiri va XX-asr boshlarida ko'pgina davlatlarda mudofaaviy tizimning tizimostisi ko'rinishida tashkiliy, mafkuraviy to'qnashuvlar strategiyasi bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar vujudga keldi va ularning asosiy maqsadi jismoniy, texnik, madaniy kabi yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida tanlangan ob'ektga (hudud, davlat tanlanishi mumkin) oldindan axborot xurujini o'tkazib, harbiy yurishni muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashdan iborat. Masalan, AQSHda "Ijtimoiy axborot qumitasi", Buyuk Britaniyada "Dushman qo'shini va aholisi orasida tashviqot Boshqarmasi, Fransiya "Tashviqot xizmati", Germaniyada "Bosh shtabining maxsus bo'linmasi" kabilar shular jumlasidandir.⁶

⁵ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон. – 2017. 46-бет.

⁶ Караяни А.Г. Информационно-психологическое протевоборство в современной войне // Инт. <http://psiwar/narod/ru/lit/kara2.htm>

Birinchi jahon urushida harbiy to'qnashuvlar bilan birgalikda axborot vositasi raqibning askarlariga psixologik ta'sir ko'rsatishdan keng foydalanilgan. Bunda axborot vositalari yordamida raqibning harbiy xizmatchilariga ta'sir o'tkazib, ularni o'z tomoniga og'dirish, to'qnashuv kayfiyatini so'ndirishga bo'lgan da'vatlar varaqalar yordamida qo'llanilgan. Varaqalar samolyot yordamida raqibni shaxsiy tarkibni joylashgan makonida va maxsus snaryadlar (snaryadlar varaqalarni tashash uchun mo'ljallangan) vositasida tarqatilgan. Varaqalarda sara hayotga ega bo'lish uchun, qurolni tashlab bu tomonga o'tish, kuchlarning teng emasligi bilan qo'rqitish va taslim bo'lishga chaqiriqlar o'z in'ikosini topgan.

AQSH harbiy-havo kuchlari XX-asrning 80-yillaridan boshlab harbiy sohada axborot vositalaridan foydalanish masalasini faol tadbqiq etdi. CHunki axborot ham maqsad va ham qurol bo'lishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar shakllanib, axborot kurash vositasi ekanligi haqida munosabat modellari harbiy psixologlar tomonidan yaratib bo'lgandi. Sovuq urushdan keyingi davrda, mudofaa va xavfsizlik tizimida yangi vazifalar paydo bo'ldi. Masalan, AQSH Mudofaa vazirligi hujjatlarida "axborot to'qnashuvi" atamasi keng qo'llaniladigan bo'ldi va 1991 yilda o'tkazilgan, harbiy tarixda "Sahrodagi bo'ron" nomi bilan muhrlangan jangovar harakatdan so'ng bu tushuncha OAVlarda tez-tez qo'llanila boshlandi.

Mazkur masala bo'yicha dastlabki rasmiy hujjat sifatida AQSH Mudofaa vazirining 1992 yilning 21-dekabrdagi "Axborot to'qnashuvi" nomli direktivasini keltirish mumkin. SHu bilan birga, mazkur atamaning kelib chiqishi va siyosiy-harbiy hamda ilmiy muloqotda ommaviylashuvini quyidagi omillarning ta'siri bilan vujudga kelganligini ko'rsatib o'tish mumkin:

- harbiy to'qnashuvlarga qaraganda kam harajat talab etishi va samarali natija berishi bilan. CHunki harbiy to'qnashuvlarda jismoniy (harbiylarni yo'qotish), moddiy (o'q-dori, texnikalarni yo'q bo'lishi) va ma'naviy (harbiy taktika va strategiyaga doir bilimlardan foydalanish);

- dushmanga sezdirmagan holda (zimdan) o'z maqsadlarini amalga oshirish imkonini mavjudligi bilan. Turli axborot kanallari yordamida askarlar, kichik va katta ofitserlar tarkibiga yoki ularning yaqinlari vositasida harbiy harakatlar (yurishlar), yuqotishlar besamarligini uqtirish ko'rinishida ta'sir ko'rsatib, individual, jamoaviy (guruhiy-qism darajasida) jangovar shaylik darajasi pasayadi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, qurol va aslahalarni ishlab chiqarishga nisbatan tez va arzon ekanligi va ko'pfunksionalligi. Turli mazmundagi (SMS, MMS kabi shakllarda) bayonot, reklama, fotolavha, intervyu, munosabat tarzida harbiy harakat va to'qnashuvlarning natijasi qanday poyoniga etishi va kim g'olibu kim mag'lub ekanligini tarqatib, askar, turli toifadagi ofitserlar va ularning yaqinlariga ta'sir ko'rsatib, kerakli qaror qabul qilishga undash (majburlash) oson kechadi;

- "qattiq kuch" (harbiy, moliyaviy-iqtisodiy, moddiy-texnik ko'rinishlarda) vositasida doim ham muvaffaqiyatga erishish, g'alabani ta'minlash imkoniyatini yo'qligini harbiy to'qnashuvlar tajribasi va ilmiy tadqiqotlarning natijasi asoslab berganligi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasitasida "yumshoq kuch" (madaniyat, san'at, badiiy adabiyot, ijtimoiy reklama va boshqalar) tanlangan ob'ektga

qo'llanilganda, "hujum uyushtirilgan"ligini asoslashni murakkabligi va gohida isbotlab bo'lmashligi jihatidan qo'llanilayotgan tomon uchun qulayligi.

Harbiy nizolar va qurolli to'qnashuvlarni harakat tarzi (taktika va strategiyasi) o'zgarganligi sababli, oldin harbiy to'qnashuvlarda qo'llaniladigan "axborot-psixologik hujum" texnikasi, iqtisodiy faoliyatda keng qo'llanila boshladi. Bundan ko'zlangan maqsad moddiy naf ko'rishdan, ma'lum bir ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni ta'sir ko'rsatish doirasini kengaytirishdan (monopoliyaga erishishini ta'minlashdan) iborat. Misol tariqasida Nestle belgisi asosida ishlab chiqarilayotgan chaqaloqlar uchun mo'ljallangan sutning tarkibi, ona sutining tarkibi bilan "barobar"ligini targ'ib qiluvchi axborotlar yoki harbiy sanoatda "Kalashnikov konserni" (Rossiya Federatsiyasi, Tula shahri) harbiy qurol va o'q-dorilar bozorida birinchilikni saqlab qolishi uchun izlanishlar va turli tadbirlarni o'tkazilishini ko'rsatib o'tish mumkin. Keltirilgan dalillar, axborot to'qnashuvi (hujumi) olib borish bir nechta maqsadlar asosida olib borilishi mumkinligini ko'rsatadi. Muhimlari sifatida harbiy-psixologik nuqtai nazar asosida quyidagilarni ko'rsatib o'tamiz:

- mudofaaviy faoliyatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot va axborot makonini shartli raqib tomonidan norasmiy qo'lga kiritish harakatlaridan himoyasini amalga oshirish;
- harbiy tizimni boshqarish uchun qo'llaniladigan axborotni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilib, aniq iste'molchisiga borib etishini ta'minlash;
- mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasi haqidagi axborotni shartli raqibga tushmasligini va uni amalga oshirish jarayonini himoya qilish;
- siyosiy etakchilar, jamoat arboblari, ularning shaxsi va faoliyatiga doir faqatgina xizmat doirasida foydalanish uchun qo'llaniladigan axborotni himoya qilish;
- jamiyatda mudofaaviy ongni shakllantirish uchun qurolli kuchlarni solohiyati, tayyorgarlik darajasi va harbiy-texnik ta'minotga doir axborotlarni ommaviylashtirish;
- mamlakat, mintaqa yoki global sathda qurolli kuchlar imijini shakllantirish uchun axborot tayyorlash va etkazish;
- mudofaa va xavfsizlikka doir qarorlar tayyorlash jarayoniga ta'sir ko'rsatib, o'z maqsadiga erishish kabilar.

Axborot to'qnashuvi raqibni (iste'molchini) faoliyatiga, qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatib, ta'sir ko'rsatuvchilarning manfaatiga mos tushadigan xulq namunasi yoki qaror qabul qilishni ta'minlash uchun qo'llaniladi. bugungi kunda axborot to'qnashuvini olib borishning asosiy vositasi Ommaviy axborot vositalari va ayniqsa "elektron" ommaviy axborot vositalari: -radio, televidenie va Internet tizimi hisoblanadi. Ularni "harakat maydoni"ni, iste'molchilarni jalb etish qamrovi kengligini inobatga olsak, g'oyaviy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida maqbul ekanligi bilan ajralib turadi. Maqbullik, axborot hujumini uyushtirilgan va olib borilayotgan tomonni manzili, maqsadini belgilash qiyin kechadi. 1-rasmda axborot to'qnashuvini jarayon sifatida tasvirlab, uni vujudga keltirilgan tomonlar ko'pincha "noaniqligi"cha qolishini ko'rsatib, kurash olib borish uchun tomonlarni tayyorlangan axboroti tez sur'atlar bilan tarqatishini inobatga olsak, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqadorligiga ham ta'sir ko'rsatishini kuzatish qiyin emas. Xizmat faoliyatini

psixologik ta'minlash mutaxassisi davlat manfaatlarini inobatga olgan holda, ularni zararlantirish tadbirlarini amalga oshirishi lozim.

Buning uchun, ijtimoiy modellashtirishni muhim tarkibi bo'lgan psixologik modellashtirish usulidan foydalanib, bosim o'tkazilayotgan tomonni harakat yo'nalishini belgilab, unga nisbatan psixologik himoya tizimini tashkil etishi lozim bo'ladi. Psixologik himoya tizimini shakllantirish uchun, psixologik himoyani asosiy yo'nalishlarini belgilash lozim bo'ladi. Nazariy jihatdan ularni quyidagicha belgilash mumkin:

I-yo'nalish: - jamiyatni ijtimoiy sohasini (ijtimoiy institutlar: -oila, sog'liqni saqlash va boshqalar kiradi) psixologik himoyasini ta'minlash;


II-yo'nalish: jamiyatni iqtisodiy sohasini (iqtisodiy institutlar: -zavod, fabrika, tadbirkorlik faoliyati va boshqalar kiradi) psixologik himoyasini ta'minlash;

III-yo'nalish: - jamiyatni madaniy sohasini (madaniy institutlar: -ta'lim muassasalari, din, kutubxona, axborot resurs markazlari va boshqalar kiradi) psixologik himoyasini ta'minlash;

IV-yo'nalish: - jamiyatni siyosiy sohasini (siyosiy institutlar: - siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar va boshqalar kiradi) psixologik himoyasini ta'minlash.

Psixologik himoya tizimini muvaffaqiyatli tashkil etish xavfsizlik tizimini strukturaviy tasnifi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish talab etiladiki, uni 1-chizmada ko'rsatib o'tamiz.

1-chizma



Har bir sohaning zahirida individual – shaxsiy darajada xavfsizlikni ta'minlash mujassamlashgan. Axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlashda bu o'ziga

xoslikni inobatga olish tavsiya etiladi. Agarda axborot to'qnashuvi har doim ham harbiylashtirilgan kuchlar tomonidan faqatgina harbiy ob'ektlarga qaratilgan bo'lishi shart emasligini inobatga olsak. Bunday to'qnashuvda siyosiy hokimiyat, ishlab chiqaruvchi va savdo-sotiq tuzilmalari ham ishtirok etadilar. Demakki, axborot to'qnashuvida yoki kurashida harbiy ham fuqaro ham u yoki bu shaklda ishtirok etib, munosabatlar tarzini shakllanishiga salmoqli ta'sir ko'rsata oladilar. Bunday harakatlar (operatsiyalar) siyosiy psixologiyada "axborot to'qnashuvi", "axborot kurashi" va "axborot hujumi" deb yuritiladi⁷.

Axborot to'qnashuvi, aniq kuchlar (siyosiy markazlar, tahliliy uyushmalar, razvedkaviy bo'limlar) tomonidan o'z mamlakatining milliy manfaatlarini ta'minlash yoki himoyasini amalga oshirish uchun, tanlangan raqibga nisbatan qo'llaniladi. Bu jarayonda ta'sir ko'rsatish vaqti va ta'sir ko'rsatish nuqtasini oldindan belgilash murakkab. SHu bois, axborot oqimini sohaviy tarzda, ya'ni iqtisodga, madaniyatga, siyosatga oid bo'lganlarini jamlash jarayonida saralash tavsiya etiladi. Ularning tarkibidagi kalit so'zlar yordamida axborot kurashining dinamikasini belgilash mumkin. Axborot to'qnashuvi mintaqaviy chegaralanmagan bo'lib, uni tezkor harakatlar, favqulodda vaziyatlar, jang teatr maydonida, dam olish vaqtida ham o'tkazish mumkin. SHu sababli, Xitoy Xalq Respublikasi har 50 yil davomida bir marotaba butun mamlakat aholisini yot axborotlarni ta'siriga tushib egallab salbiy xulq namunasi, yot g'oya va mafkuralardan xalos etish maqsadida "psixologik tozalash" tadbirlarini o'tkazadi. Bu tadbirda, psixolog, sotsiolog, madaniyatshunos, tarixchi, huquqshunos, san'atshunos, dinshunos va boshqa soha vakillari faol ishtirok etib, o'z madaniyati, sanatining tarixi, bu xalqning o'tmishi qanday bo'lganligi va kelajagining ravnaqi qanday bo'lishi kerak, buning uchun har bir inson qanday yo'l tutishi majmuaviy tarzda o'qtiriladi. CHunki axborot to'qnashuvida qizil chiziq, ya'ni front liniyasi mavjud emas. Axborot to'qnashuvini huquqiy yoki axloqiy normalari mavjud emas. "Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavf bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda"⁸-deb ta'kidlaganda, Prezidentimiz, Qurolli kuchlar oliy bosh qo'mondoni SHavkat Mirziyoev, mamlakatimizni mudofaaviy tizimini mustahkamlashda hushyor turib, xavf va tahdidlarni (shu jumladan axborot sohasida ham) o'z vaqtida belgilash lozimligini nazarda tutgan.

Axborot hujumining quyidagi turlari mavjud:

- Radioelektron hujumi;
- Psixologik hujumi;
- Xakerlik⁹ hujumi;
- Kibernetik hujumi.

Radioelektron hujumi – bu raqib tomon kompyuter tarmoqlari va tizimlarining faoliyatiga shikast etkazish yo'li bilan axborotlarni ishlab chiqish, jamlash, saralash va ishlov berish hamda uzatishiga to'sqinlik qilishdir.

⁷ Самаров Р. Сиёсий психология / Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2008. 79-80 бетлар.

⁸ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. - Т: Ўзбекистон, 2017. 138-бет.

⁹ Инглиз. Наскер: - дастурчи, фанат. Электрон кулфларни бузувчи. Компьютер безориси. Словарь иностранных слов (около 10 000 слов). – СПб.: ООО "Виктория плюс", 2010. - С.722.

Bunda tarmoq tizimining barcha imkoniyatlari razvedka vositalari orqali chuqur tahlil qilinib faqatgina eng zarur qismiga shikast etkaziladi raqibni radioto'lqin orqali aloqaga chiqishga majbur etiladi yoki shikast sababli kompyuter tizimining ishlashi sekinlashadi CHunki hozirgi axborot-psixologik xurujlar olib bori bosqichda tarmoqlar qattiq himoyaga ega, ulardan axborot olish yoki o'zgartirish juda mushkuldir. Radioto'lqin orqali kekadigan axborotlar nisbatan himoyalanmagandir, ularni olish va o'zgartirish imkoniyati mavjuddir.

Xakerlar tomonidan olib boriladigan axborot xuruji – turli mavzudagi yopiq axborotlarni qo'lga kiritish maqsadida kompyuter tizimlarini buzib, undagi axborotlarni o'g'irlab sotish yoki boshqa bir maqsadda foydalanish uchun amalga oshiriladigan harakat.

Kibernetik hujum – bu virtual maydonda imitatsiya modellaridan foydalangan holda olib boriladigan to'qnashuv turi hisoblanib, biron bir ob'ektning nusxasi tayyorlanib, unga hujum uyushtiriladi va uning o'z konsepsiyasi mavjud.

Psixologik hujum – bu odamlarni dunyoqarashi, fikri, motivlari, xulqi stereotiplari, ustanovkalari, qadriyatlarini o'zi hoxlagan tomonga yo'naltirishning usuli hisoblanib, hujum uyushtirilayotgan tomon "tuzgan" reja va maqsadlari asosida faoliyat yuritishni ta'minlashga erishish uchun olib boriladi.

U quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi:

- raqibning siyosiy etakchilariga, harbiy boshqaruv apparatiga (qo'mondonlariga) uzatilayotgan (kelayotgan) axborotlarni almashtirish (raqam, dalil, joy, vaqt va boshqa belgilarni yashirish, o'zgartirish, noto'g'ri taqdim etish. AQSH qo'shinlarini 2003 yilning mart oyida Iroqqa bostirib kirishida, sabab ko'rinishida, bu mamlakatda YAdro quroli borligi ko'rsatilgan. Bu noto'g'ri axborot asosida qabul qilingan siyosiy qaror bo'lgan. AQSH Prezidenti kichik Jorj Bush va o'sha vaqtdagi Mudofaa vaziri Donald Rmasfeld axborotni yolg'onligini e'tirof etganliklari misol bo'la oladi);

- raqibga yolg'on yoki mazmunsiz axborot berib, kechayotgan voqea-hodisalarni to'g'ri idrok qilish va to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatidan mahrum qilish (resurslardan foydalanish, kuchlarni yo'naltirish tartibini chalg'itish. Iroq Prezidenti Saddam Huseynni siyosiy hokimiyatdan chetlashtirilishi misol bo'la oladi);

- raqib tomonning halqi va harbiy xizmatchilarini e'tiborini boshqa masalaga (mavzuga) o'tkazish, ya'ni psixologik chalg'itish (Liviya Jamaxiriyasi rahbari Muammar Qaddofini hukumatdan ag'darilishi misol bo'la oladi);

- raqib tomonning halqini o'z hukumati va siyosiy elitaning faoliyatiga ishonchsizligini uyg'oish (g'oyaviy diversiya o'tkazish, dezinformatsiyalarni tarqatish. Bunga Gruzuya prezidenti eduard SHvernadzening hokimiyatdan quvilganligi misol bo'la oladi);

- o'z maqsadlariga erishish uchun shakllantirgan g'oyaga raqib tomonning ijobiy ijtimoiy fikrni shakllatirib, ularni qo'llab-quvvatlashiga erishish (g'arb demokratiyaparast kuchlari tomonidan Ukrainaning Odessa shahri meri lavozimiga Gruziyaning sobiq prezidenti Mixail Saakashivillini keltirishi misol bo'la oladi);

- yolg'on da'vat va shiorlar ostida ommaviy chiqishlarni moddiy qo'llab-quvvatlab, raqib tomonning halqini qo'zg'alishini ta'minlash (bunga misol,

Qirg'iziston prezidenti Askar Akaevning siyosiy faoliyatiga chek qo'yilishi misol bo'la oladi).

Psixologik hujumda quyidagi ta'sir vositalaridan foydalaniladi:

- a) xabar omilidan;
- b) psixogen omillardan;
- c) psixoanalitik omilidan;
- d) neyro-lingvistik omilidan;
- e) psixotron omilidan;
- f) psixotrop omilidan.

Ba'zi mutaxassislar e'tirof etishlaricha, ayrim davlatlar tomonidan o'tkazilayotgan "psixologik hujum" olib borish metodlari aslida qadimgi eramizdan oldingi VI asrda yashagan xitoy faylasufi va harbiy arbobi Sun Szi qo'llanmalarida juda aniq ifodalab berilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- dushmaningizning mamlakatidagi hamma yaxshi narsalarni parokanda qiling;
- dushmanning ko'zga ko'ringan arboblarni jinoyatkorona ishlarga jalb qiling;
- dushman rahbarlarining obro'sini to'king va payti kelganda ularni jamoatchilik oldida izza qiling;
- shu maqsadda eng qabih va razil odamlar bilan hamkorlikdan foydalaning;
- o'zingizga dushman mamlakat fuqarolari orasida nizo va to'qnashuvlar keltirib chiqaring;
- yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang;
- hukumatning ishiga barcha vositalar bilan xalal bering;
- dushman qo'shinlarining me'yor darajasida ta'minlanishiga va ularda tartib saqlanishiga barcha usullar bilan to'sqinlik qiling;
- dushman qo'shinlari maylini ashula va musiqalar bilan band qilib qo'ying;
- dushmanlaringizning an'analarini qadrsizlantirish va o'z xudolariga ishonchini yo'qotish uchun mumkin bo'lgan hamma narsani amalga oshiring;
- ma'naviy buzilishni avj oldirish uchun engiltabiat ayollarni yuboring;
- axborotni va o'zingiz uchun sheriklar sotib olish uchun taklif va sovg'alarga saxiy bo'ling;
- mablag'ni ham, va'dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalar beradi.

Axborot vositada **psixologik ta'sir** – bu so'z va xabar orqali insonga ta'sir ko'rstaishshdir. Har bir so'z va xabar harakatga keltiruvchi rag'bat, ya'ni stimul (S) hisoblanib, natijada unga nisbatan javob reaksiyasi, ya'ni munosabat (R) paydo bo'ladi. Bu shaklda ta'sir o'tkazishning asosiy maqsadi ma'lum ijtimoiy fikr, qarash, tasavvur, e'tiqod va shu bilan birga odamlarda ijobiy yoki salbiy emotsiyalar, his-tuyg'ular, hatto jo'shqin ommaviy reaksiyalarni ham keltirib chiqarishdan iborat. SHu yo'sinda, axborot qurol vositasiga aylanadi. Axborot quroli tushunchasi keng va tor darajalarda ma'lum semantik birliklarni ifoda etadi.

Keng darajada axborot quroli deb raqibni kerakli yo'nalishda fikrlashga undaydigan, uning nuqtai nazarini o'zgartirishga qodir bo'lgan va kerakli xabar yordamida amalga oshiriladigan harakatlariga aytiladi.

Tor ma'noda axborot quroli deb raqibning axborot zaxiralari ustidan nazoratni ta'minlaydigan va uning telekommunikatsiyalari tizimlariga zarar etkaza oladigan texnikaviy usullar va texnologiyalarga aytiladi.

Demak, axborot quroli – bu raqibning axborot va boshqaruv tizimlariga ta'sir etuvchi maxsus moslama va vositalarning majmuaviy birligidir. Tabiiyki, axborot texnologiyalari yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda bunday quroldan foydalanish imkoniyatlari ham juda keng. SHu sababli, axborotni xavfsizligini ta'minlashda kriptografik yondashuv masalasi dolzarblashib, axborot tezimga o'g'rilarcha kirib, uni izdan chiqarish yoki xabarlar tarkibini o'zgartirish uchun harakatlarni amalga oshirishdan himoyalanih talab etiladi.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha davlatlar axborot sohasida tadrijiy rivojlanish va turli xil tazyiqlar mavjud bo'lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha faoliyatni kuchaytirdilar. Bu ma'noda Akinavada 2000 yilning 22-iyulida jahonning rivojlangan 8 ta mamlakati tomonidan imzolangan global axborot jamiyati xartiyasini eslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur xartiya yangi asrga jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanishidan yaqqol dalolat beradi.


Ilmiy-texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. YAngi yuqori texnologiyalar jamiyat a'zolarining turmushini istalgan mahsulot bilan ta'minlashga, sanoat xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini berdi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko'z ko'rib quloq eshitmagan sur'at va ko'lamga ega bo'lgan muvaffaqiyatlarga erishildi.

Kishilar o'rtasida turli masofalar oraliq'ida xabar etkazishni ta'minlash uchun qo'llaniladigan axbort-kommunikatsiya texnikasi, axborot aloqa tizimi, Internet tizimi shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayotida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina uyg'un rivojlanishi mumkin. SHuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, texnik, ma'rifiy, ilmiy va boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. SHuning uchun ko'p mamlakatlarda yagona milliy axborot makoni yaratilmoqda. Gegemonlikka intilayotgan ba'zi davlatlar esa, boshqa mamlakatlarni axborot makonini o'zlarining axborot makonini bir bo'lagi bo'lishga intilmoqdalar. Buning natijasida, butun bir mamlakat aholisining shaxsiy-kasbiy masalasiga taalluqli bo'lgan axborotlar ularning e'tiboriga tushmoqda. Bu holat o'z navbatida gegemon davlatlar tomonidan turli darajalarda boshqaruvni amalga oshirishlari uchun qulaydir. Masalan, iste'molchilarni turli mahsulotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini aniqlab, ularga belgilangan narx yoki shartlar asosida uni etkazib, ma'lum tarzda daromad ko'rish mumkin. Ammo, jamiyat a'zolari ongini manipulyasiya qilish maqsadida bu harakatlarni marketeng yoki menejment faoliyati deb yuritishadi. Axborotni xavfsizligini ta'minlash yo'lida faoliyat yurituvchi mutaxassis masalani bu jihatlarini ham inobatga olishi lozim.

Axborot, xalqaro munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. YA'ni u jahon hamjamiyati hayotida "kuch" sifatida namoyon bo'lishi mumkin. SHu ma'noda texnika va texnologiya sohalarida katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar ustunlikka ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. SHunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globallashuvga qarshi

harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o'zi tobora global harakat tusini olmoqda. Zamonamizning o'ziga xos jihatlaridan bo'lib, har qanday hududiy yoki mintaqaviy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqea tusini olmoqda. Bundan asosan gegemon davlatlar, yoki manfaatdor kuchlar foydalanmoqda. Masalan, 2001 yil 11 sentyabrda Nyu – YOrkda yuz bergan voqea, Levan tuprog'idagi xarbiy harakatlar, Fransiyadagi yoshlarning chiqishlari, u yoki bu mamlakatdagi saylovlar, aviahalokat, tabiiy ofat, terrorchilik harakati va boshqa shunga o'xshash voqea va hodisalar buning yorqin dalili bo'ladi. Aniq tasavvurga ega bo'lish uchun Nyu - YOrkdagi ekzak binolarni terroristik xurujgacha va terroristik xurujdan keyin ko'rinishini 2-rasmda keltiramiz. Masalani nozik va e'tibor tortuvchi jihati shundaki, bunda binolarni qulashi emas, balki uning ichidagi insonlarni hayotiga nuqta qo'yilishidadir.

Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan alohida olingan bir mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarning holatidan darak beradi.



2-rasm. Ekzak binolarni terroristik xurujgacha un undan keyingi holati.

Bularning barchasi axborot jarayonlarining globallashuvi bilan bog'liq muammolar dolzarbligini yana bir karra namoyon etmoqda. Ammo mazkur muammolar tufayli axborotni ishlab chiqish va tarqatish imkoniyatlarida tengsizlik paydo bo'ladi. Bu ob'ektiv vaziyatni shunday deb qabul qilmoq kerak. Mamlakatlar bu boradagi o'z ustunliklarini milliy manfaatlarida foydalanishlari boshqa gap. Mana shunday vaqtda munosabatlarda keskinlik yuzaga keladi, u ko'p hollarda axborot kurashiga yoki boshqacha qilib aytganda psixologik to'qnashuvga aylanib ketadi. Ochiq axborot tizimlarida axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash majmuaviy yondashuvni talab etadi. Har bir davlat bu masala yuzasidan ish olib bormoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, OITS, parranda grippi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog'liqdir.

Axborot, moddiy va nomoddiy dunyoni individual ongda yoki jamoaviy ongda aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhitni o'zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy va nomoddiy dunyo obektlarining in'ikosidir. U xabarlar shaklida namoyon bo'ladi. Bunda ochiq axborot tizimlari kishilar, ijtimoiy guruhlar, umuman jamiyat a'zolariga tasavvurni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bunda:

Milliy manfaatlar, bu-davlat tomonidan tan olingan hamda shaxs, jamiyat va davlat ijtimoiy manfaatlarining huquqiy jihatdan ta'minlangan mutanosiblashgan majmuidir. Bularni amalga oshirish muayyan tarixiy sharoitda millatning mavjudligi, xavfsizligi va kafolati hisoblanadi.

Jamiyat manfaatlari jamiyat rivojlanishidagi kuchli ziddiyatlarni hal etishda, milliy o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladigan jamiyat ehtiyoji hisoblanadi.

Davlat manfaati bo'lib, jamiyat ishlarini boshqarishni sifatli amalga oshirishga, milliy o'ziga xoslikni saqlashga bo'lgan davlat ehtiyojining namoyoni hisoblanadi.

O'zini namoyon eta bilishlik, jamiyat ishlarida qatnashishlik, etnik o'ziga xoslikni saqlash shaxsiy ehtiyojlarni namoyon bo'lishi-shaxsning ijtimoiy manfaatlaridir.

Jamiyatning axboriy xavfsizligi uning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy sohalariga, madaniy qadriyatlariga, insonlar xulq-atvorini ijtimoiy tartibga soluvchilarga, axborot infratuzilmalariga va bular yordamida uzatilayotgan xabarlarga zarar etkazish mumkin emasligidan iboratdir.

Davlatning axboriy xavfsizligi predmeti axborot va jamiyat axborot infratuzilmalaridan tashkil topgan jamiyat ishlarini boshqarishni bajarish bo'yicha davlat faoliyatiga zarar etkazish mumkin emasligidan iborat.

Tazyiq bu o'zaro munosabatlar obektlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni obektlardan birining salbiy tomonga kuch bilan o'zgartirish kritish maqsadida zarar etkazish yo'li bilan hal etish usulidir.

Milliy manfaatlarga tazyiq deganda mamlakat milliy manfaatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi milliy qadriyatlar va milliy turmush tarziga xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar majmui tushuniladi.

Axborot sohasidagi milliy manfaatlarga tazyiq deganda axborot sohasida va manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatda milliy manfaatlar ob'ektlariga zarar etkazish xavfini tug'diruvchi shart-sharoitlar majmui anglashiladi. YA'ni axboriy faoliyat sohasida inson va fuqaro huquqiy mavqeini amalga oshirishga, axborotlar, axboriy infratuzilmaga, shuningdek, mazkur ob'ektlar bilan bog'liq milliy manfaatlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga zarar etkazish tazyiqidir.

Axborot sohasida shaxs va jamiyat manfaatlariga tazyiq deganda inson va fuqaroning ochiq axborotga ega bo'lishi, qonun bilan ta'qiqlanmagan faoliyatni amalga oshirishda foydalanishga bo'lgan huquqini cheklash tushuniladi. Bular esa shaxsiy xavfsizlik ma'naviy va aqliy rivojlanishni ta'minlovchi axborotlar hisoblanadi. Bundan tashqari individual, "virtual axborot" maydonini, uning ruhiy faoliyatiga ta'sir etish texnologiyalaridan foydalanish imkonini shakllantirish hisobiga jamoatchilik ongini chalg'itish imkonini kengaytirish shaxsning manfaatlariga bo'lgan eng xavfli tajovuz hisoblanadi.

Axborot tizimini va aloqa tarmoqlarini, jamiyat hayotini ta'minlovchi o'ta muhim infratuzilmalarni murakkablashtirish axborot sohasidagi jamiyat manfaatlariga

bo'lgan tazyiq manbalaridan biri hisoblanadi. Bu tazyiqlar atayin yoki anglanmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari ular texnikaning va tizim ta'minotining xatosi yoki ishlamay qolishi tufayli, jinoyatchi to'dalar yoki unsurlar tomonidan mazkur infratuzilmaga zararli ta'sir sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Yana bir tazyiq manbai bo'lib, OAVlarning mulkdorlar uchun uncha katta bo'lmagan guruhi qo'lida to'planishi hisoblanadi. Bular tazyig'i ostida ijtimoiy ahamiyatga molik biror hodisa soxtalashtirilishi hamda jamoatchilik fikri chalg'itilishi mumkin, shuningdek, yot qadriyatlarni tiqishtirish yo'li bilan jamiyat ahloqiy zaminiga putur etkazish mumkin.

"Axboriy qurol"ni tarqatish va bu sohada "qurollanish poygasi"ni kuchaytirish ham axborot sohasidagi davlat manfaatlari uchun xavf manbai hisoblanadi. Bunday xavflar davlat siri hisoblangan, boshqa maxfiy axborotlardan iborat bo'lgan ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ega bo'lishdan iboratdir. Ma'lumki, bularning oshkor bo'lishi shubhasiz, davlat manfaatlariga zarar etkazadi.

Axboriy qarama-qarshilik-bu auditoriyaga atrof dunyodagi biror hodisaga nisbatan munosabatda bo'lishga o'z qarashlari, fikrini tiqishtirish hamda qarshi tomon g'oyasi va nuqtai nazarini inkor etish roli bilan ta'sir etishga intilishdir.

Axboriy psixologik kurash - bu boshqa mamlakat yoki mamlakatlar guruhida mavjud ijtimoiy tuzumni bo'shashtirish, jamiyat ahloqini izdan chiqarish, rivojlanish milliy dasturiga putur etkazish, shuningdek o'z qadriyatlari va turmush tarzini to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish maqsadida axborot xizmati va qo'poruvchilik bilan shug'ullanuvchi xizmatlarni o'zaro hamkorligidir.

Topshiriq – individning e'tibor qaratishiga, munosabat bildirishiga, jumladan kelayotgan axborotga ham psixologik jihatdan tayyor ekanligidir. Psixologik jihatdan topshiriq u yoki bu qarorga kelish yo'lida shakllanadi. Bunda konkret holat bilan unga bog'liq bo'lgan turli omillar hisobga olinadi.

SHunday qilib, insoniyat o'z tarixida Aqlli insondan (Homo sapiens) -Nutqli inson (Homo loguens)ga qadar bo'lgan tarixiy davr mobaynida (garchi madaniyatlar, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy tizimlar o'zgarib, takomillashib borayotgan bo'lsa-da) insonning axborotga (uning yaratilishi, xossalari, tuzilishi, uzatish tartibi, ishlov berish tarzi kabi xususiyatlari) qiziqishi doimo takomillashib borgan. Ya'ni, axborot o'zining jozibadorligi, "psixologik kuch"ga ega ekanligi, aniq vaziyat va tarixiy davrda vujudga kelishi bilan ahamiyatlidir.

Ochiq axborot tizimlarida axborot to'qnashuvi ko'pincha dezinformatsiya va manipulyatsiya orqali kognitiv hamda emotsional reaksiyalarni boshqarishga qaratiladi; bu esa psixologik xavfsizlikka real zarar yetkazadi. Barqaror himoya faqat texnik choralar bilan cheklanmaydi: media savodxonlik va axboriy-gigiyena, faktcheking va tezkor rad etish, platforma moderatsiyasi va algoritmik shaffoflik, kiberxavfsizlik hamda huquqiy javobgarlik mexanizmlarini kompleks uyg'unlashtirish zarur. Shunday yondashuv axborot muhitida shaxsning kognitiv mustaqilligini, jamiyatning esa ijtimoiy ishonch va barqarorligini mustahkamlaydi.